
SAVDO YARMARKALARIDA 30 TUR YAQIN MAHSULOTLAR SOTILMOQDA

Yaqinlashib kelayotgan Yangi yil bayrami munosabati bilan Farg'ona shahar Markaziy dehqon bozorida 1 dekabrdan buyon oziq-ovqat mahsulotlari sotishga mo'ljallangan arzonlashtirilgan savdo yarmarkasi ish boshlagan. Farg'ona shahar hokimligi va shahar iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti hamkorligida tashkil etilgan yarmarka faoliyati nazoratga olingan.

Savdo yarmarkasida 30 turga yaqin oziq-ovqat mahsulotlari arzon narhlarda sotilmoqda. Yarmarka 15 yanvargacha davom etadi. Shuningdek, aholiga bayram kayfiyatini ulashish maqsadida shahar madaniyat bo'limi xodimlari tomonidan bozorning old maydonida kontsert dasturlari ham namoyish etilishi belgilangan.

Quvonarlisi, savdo yarmarkalarida shahrimizning fermer xo'jaliklari o'zlari yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hamda tadbirkorlarimiz o'zlari ishlab chiqargan mahsulotlarni aholi dasturxonlariga arzon narxlarda taqdim etmoqdalar.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-12-09 15:30:32